

20-May, 2025-yil

## **RESPUBLIKA MUSIQA TEXNIKUMLARI VA MAKTABLARIDA OVOZ TAYYORLASH METODIKASI**

*Respublika musiqa va san'at texnikumi  
To'ychiyev Iqbol  
Maxamadaliyeva Dilnavoz*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi musiqa texnikumlari va ixtisoslashtirilgan maktablarida ovoz tayyorlash metodikasi tahlil qilingan. Unda vokal tayyorlarlikning bosqichlari, nafas va artikulyatsiya mashqlari, individual yondashuv, akademik vokal asoslari hamda metodik usullar yoritilgan. Shuningdek, ovoz tayyorlashdagi dolzarb muammolar va ularni zamонавиy texnologiyalar yordamida hal etish yo'llari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Ovoz tayyorlash, vokal mashg'ulotlar, musiqa texnikumi, nafas mashqlari, diktsiya, rezonans, ustoz-shogird, metodika, san'at ta'limi.

Ovoz san'ati — bu inson organizmining tabiiy imkoniyatlari asosida yaratiladigan, ammo to'g'ri yo'naltirilmasa, to'laqonli namoyon bo'lmaydigan murakkab jarayondir. Shu bois, ovozni tayyorlash, uni yo'lga qo'yish va mukammallashtirish san'at ta'limining muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi musiqa texnikumlari va ixtisoslashtirilgan maktablarida ushbu jarayon nazariy va amaliy jihatdan chuqr asoslangan metodikaga tayangan holda olib boriladi.

1. Nafas ustida ishslash — ovozning barqarorligi va tiniqligi bevosita to'g'ri nafas olishga bog'liq. Shu bois mashg'ulotlar nafas mashqlari bilan boshlanadi.

2. Artikulyatsiya va diktsiya — so'zlarining aniq va toza talaffuzi xonanda yoki notiqning asosiy fazilatlaridan biridir. Mashg'ulotlarda til, lab, jag' mushaklarini mustahkamlashga alohida e'tibor beriladi.

3. Diapazonni kengaytirish — vokal mashqlar orqali past, o'rta va baland registrlarda ishslashga o'rgatiladi.

4. Timbre va rezonans ustida ishslash — ovozga o'ziga xos ohang va tovush kuchi berish uchun ovoz rezonatorlaridan to'g'ri foydalanish o'rgatiladi.

5. Repertuar bilan ishslash — turli uslub va janrlardagi asarlar orqali shaxsiy ifoda va vokal texnikani rivojlantirish.

### Metodik yondashuvlar

Texnikum va san'at maktablarida ovoz tayyorlash bo'yicha quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

- Ustoz-shogird tamoyili — har bir o'quvchi individual yondashuv asosida tayyorlanadi, shaxsiy ovoz turi va imkoniyatlariga qarab mashqlar belgilanadi.

- Akademik vokal asoslari — nafaqat xalq ijodi, balki klassik vokal texnikalar ham o'rgatiladi.

- Mashqlarni zamонавиy vositalar bilan boyitish — diktofon, videoanaliz, mikrofonli tinglovlar orqali o'quvchining ovoziga tahliliy yondashuv qo'llaniladi.

**20-May, 2025-yil**

- Psixologik tayyorgarlik – sahna oldidagi hayajon va bosimlarni yengish, ishonchni mustahkamlash uchun psixologik mashg‘ulotlar ham o‘tkaziladi.

Ba’zi hududlardagi texnikumlarda ovoz mashg‘ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar va tajribali vokal pedagoglar yetishmasligi mavjud muammo hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar asosida onlayn ta’lim, video darsliklar va interaktiv platformalarning joriy qilinishi bu sohada yangi imkoniyatlar ochmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Xudoyberanova M. Ovoz san’ati va vokal pedagogikasi asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016.
2. Qo‘ziev I. Xonandalik mahorati. – Toshkent: San’at, 2013.
3. Islomov S. Vokal pedagogikasining nazariy asoslari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2020.
4. “Musiqa ta’limida innovatsion metodlar” – Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2022.